



## INTERPRETATION OF ARTISTIC AND SUFISTIC CONCEPTS IN RUMI'S GHAZAL آمده ام که سر نهم'

**Nilufar Mo'minova**

4th-year student of the Persian-English group  
School of Iranian and Afghan Studies  
Tashkent State University of Oriental Studies  
E-mail: [niloofaralizadeh96@gmail.com](mailto:niloofaralizadeh96@gmail.com)

**D. Yusupova**

Senior Lecturer at the School of Iranian and Afghan Studies  
TSUOS  
Tashkent, Uzbekistan

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** Jalal al-Din Rumi, Divan-e Shams, ghazal, Sufism, ney, love, mysticism, philosophical content, divine truth, gnosis.

**Received:** 28.04.25

**Accepted:** 10.05.25

**Published:** 14.05.25

**Abstract:** This article presents the Uzbek translation of the 1403rd ghazal “آمده ام که سر نهم” (āmade-am ke sar naham) from Jalal al-Din Rumi’s work Divan-e Shams Tabrizi, one of the great figures of Persian literature. Artistic and Sufistic concepts are interpreted in the article. Relying on the thoughts and reflections of Iranian Rumi scholars and Sufism experts, the article highlights the meanings and content of the ghazal, as well as the meanings and usage contexts of the words used in the ghazal, based on sources and dictionaries.

## RUMIYNING G‘AZALIDA BADIY VA TASAVVUFİY TUSHUNCHALAR TALQINI

**Nilufar Mo'minova**

4-kurs fors-ingliz guruhi talabasi  
“Eronshunoslik va afg‘onshunoslik” oliy maktabi  
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti  
E-mail: [niloofaralizadeh96@gmail.com](mailto:niloofaralizadeh96@gmail.com)

**D. Yusupova**

“Eronshunoslik va afg‘onshunoslik” oliy maktabi katta o‘qituvchisi  
TDShU  
Toshkent, O‘zbekiston

## MAQOLA HAQIDA

**Kalit so‘zlar:** Jaloliddin Rumi, Devon-i Shams, g‘azal, tasavvuf, ney, ishq, so‘fiylik, falsafiy mazmun, ilohiy haqiqat, ma’rifat.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada fors adabiyotining buyuk namoyondalaridan biri bo‘lmish Jaloliddin Rumining “Devoni Shams Tabriziy” asaridan 1403-g‘azali [āmade-am ke sar naham] o‘zbek tiliga tarjima qilindi. Badiiy va tasavvufiy tushunchalar talqin qilindi. Eronning Rumiyshunos va tasavvuf olimlarining fikr va mulohazalariga tayanib g‘azalning qanday ma’no va mazmun kasb etishi va g‘azalda ishlatilingan so‘zlarni manbalar va lug‘atlar asosida ma’nolari va ishlatilinish o‘rinlari yoritib berildi.

### "ТОЛКОВАНИЕ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ И СУФИЙСКИХ КОНЦЕПЦИЙ В ГАЗЕЛИ РУМИ" آمده ام که سر نهم'

**Нилуфар Моминова**

Студентка 4 курса группы персидского и английского языков

Высшая школа иранистики и афганистики

Ташкентский государственный университет востоковедения

E-mail: [niloofaralizadeh96@gmail.com](mailto:niloofaralizadeh96@gmail.com)

**Д. Юсупова**

старший преподаватель

Высшей школы иранистики и афганистики

ТГУВ

Ташкент, Узбекистан

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** Джалаладдин Руми, Диван-е Шамс, газель, суфизм, пеу (флейта), любовь, мистицизм, философское содержание, божественная истина, гнонис.

**Аннотация:** В данной статье представлена узбекская перевод 1403-й газели “آمده ام که سر نهم” (āmade-am ke sar naham) из произведения Джалаладдина Руми Диван-е Шамс Табризи, одного из великих представителей персидской литературы. В статье интерпретированы художественные и суфийские концепции. Основываясь на мыслях и размышлениях иранских специалистов по Руми и суфизму, раскрываются значения и содержание газели, а также значения и контексты использования слов, приведённых в газели, на основе источников и словарей.

Jaloliddin Rumiy - jahon adabiyotining muazzam siymolaridan biri. U o‘zidan keyingi Sharq va G‘arb so‘z san’atiga katta ta’sir o‘tkazdi. Buyuk Hyote Abulqosim Firdavsiy, Shayx Sa’diy, Xo‘ja Hofizlar qatorida Jaloliddin Rumiy ijodini ham “Xizr chashmasi” deb atagan. Shams Tabriziy g‘azallarining jozibasi, sir-sinoati uning samimiy va haqiqiy ishq sohibi tilidan to‘kilganidadir,

o‘quvchi istaydimi-yo‘qmi uning ijodiyot olamiga singib ketadi: “Ovoza qilgil sarbasar, biz bir tanu bir jonmiz” . Taniqli Rumiyshunos Zarrinkub ta’biri bilan aytganda, “Mavlononing 68 yillik ajoyib umri boshdan oyoq bir she’r, go‘zal, betakror, tug‘yonli ash’or jarayoni, sadosi va bongi bilan yo‘g‘rilib o‘tdi” . Mavlono Rumiy o‘zidan keyingi avlodlarga qoldirgan qimmatbaho asarlaridan biri “Devoni kabir”, “Devoni shamsi tabriziy”, “Devoni shamsul haqoyiq” degan nomlar bilan mashhurdir, . Ushbu ilmiy adabiy meros fors tilida yozilgan bo‘lib, g‘azal, ruboiy va masnaviy shakllarida yozilgan uch mingdan ortiq she’rlardan iborat. Ustod Furuzonfarning ta’kidlashicha, Mavlono she’riyati muvaffaqiyatning sababi, yoxud Mavlaviy g‘azaliyotining boshqa shoirlardan afzalligi shundaki, u turli vaznlar va ohanglardan mohirlik bilan foydalanadi. Bu buyuk asarning “Shams Tabreziy devoni” nomi bilan shuhrat qozonganiga sabab shulkim, turli rivoyatlarga ko‘ra Movlono Shams bilan diyordorlashmagunga qadar she’r yozmagan. Bu buyuk devondagi barcha asarlar umrining oxirgi yillari ya’ni Shams Tabreziy bilan oshnolik va undan ajralish firoqi davrida yozilgan. U juda ko‘p g‘azallarida Shams Tabriziyini tilga oladi . Va unda “xomush” taxallusini ham ko‘p qo‘llagan. Mohiyatan ishqilohiy devondir. “Devoni Kabir” ning 100 dan ortiq g‘azalini o‘zbek tiliga Asqar Mahkam tarjima qilgan. Va “Masnaviy” ni tarjima qilish jarayonida fikrni ochiqlash va mohiyatni to‘laroq berish uchun “Devoni Kabir” dan foydalangan. Albattaki, undan keltirilgan bir necha baytlarni ham lisoniy tarjimaga kiritib, sharhlarni kengaytirishga uringan .

Jaloliddin Rumiy hazratlarining آمدہام که سر نهم عشق تو را به سر برم“ g‘azali tasavvuf adabiyotining eng mukammal namunalaridan biridir. Mazkur g‘azalda Rumiy o‘zining ilohiy sevgi va ma’naviy izlanishlarini ifodalaydi. Ushbu g‘azal taslimiyat, ilohiy ishq va ma’naviy yuksalish haqidagi chuqur falsafani o‘z ichiga oladi. Quyida har bir misrani batafsil tarzda tarjima qilib, sharhlab berilgan:

1-bayt:

آمدہام که سر نهم عشق تو را به سر برم

ور تو بگوییم که نی، نی شکنم شکر برم

Keldim boshimni egib, ishqing boshim uzra etay,

Gar yo‘q desang, yo‘qlaringa jonimi qurban etay .

Bu misralarda shoir ishq yo‘lida o‘zini butunlay taslim qilishga tayyor ekanini bildiradi. Tasavvufda “bosh egish” – ego va kibrdan voz kechib, mutlaq muhabbatga berilishdir. Farmonga itoat etish, taslimiyat va sajda qilish ma’nolari bor. Bu yerda ikkita “ney” dan foydalanilgan. Birinchi “ney”- “na” ya’ni “yo‘q” deyish ma’nosida, o’sha zamonlarda “yo‘q” deyish uchun “ney” dan foydalanishgan, “ney”- qat’iy yo‘q deyishni bildiradi. Ikkinci “ney”- ya’ni poyasidan shakar olinadigan shakarqamish o‘simgigidir . Rumi Allohnini shunchalik sevadiki, agar u rad etilsa ham, buni shukr bilan qabul qiladi. “Yo‘q”ni “shakar” qilish - sabr va rozilik timsoli.

سنهاند bosh egish ya’ni ma’shuqqa yoki ilohiy ishqqa taslimiyat -

شکر برم shukr qilish, qabul qilish - har qanday holatda ham mammuniyat bilan - qarash.

#### 2-bayt:

آمدهام چو عقل و جان از ھمه دیده‌ها نهان

تا سوی جان و دیدگان مشعله نظر برم

Keldim- aqlu jon misoli nazardan aylab nihon

Jonu ko‘zlarga nazar mash’alin ayon etay

Bu baytda Rumi o‘zining ruhiy safarini tasvirlaydi. U moddiy dunyodan g‘oyib bo‘lib, ruhiy haqiqat tomon yo‘l olmoqda. “Nazar mash’alasi” - ilohiy ma’rifat nuri bo‘lib, u qalblarni yoritishga intiladi.

#### 3-bayt:

آمدهام که ره زنم بر سر گنج شه زنم

آمدهام که زر برم زر نیرم خبر برم

Keldim – yo‘lini tutay, shoh ganjin sIRRin bilay,

Keldim - zarga yetishay, zar bo‘lmasa, xabar etay.

Bu misralarda “shoh xazinasi” - ilohiy haqiqat, “o‘g‘ri” esa haqiqatni izlovchi ruhiy sayyomdir. Rumiy dunyoviy boylik emas, balki haqiqiy ma’naviy bilim izlashni ifodalagan. Tasavvufiy haqiqatni izlash, dunyoviy boylikdan voz kechish va ma’rifat sari yo‘l olish tasvirlangan.

yo‘lni to‘sish - tasavvufiy yo‘lda eski bilim va xurofotlardan voz kechish -

شونг xazinasi - oddiy moddiy boylik emas, haqiqat va ma’naviy- yuksalish manbayi.

#### 4-bayt:

گر شکند دل مرا جان بدhem به دل شکن

گر ز سرم کله برد من ز میان کمر برم

Gar shikasta etsa dilim, jonim fido aylab anga,

Olsa gar boshdan tojni, belda kamar qurbon etay.

Bu baytda shoir o‘zini ilohiy ishq oldida butunlay ojizligini bildiradi.

شکند دل yurakni sindirish ya’ni ma’shuq tomonidan berilgan og‘riq, sinov -

جان دادن jon berish ya’ni ishq yo‘lida jonini ham fido qilishga tayyorlik -

کله بردن bosh kiyimini yechish ya’ni sha’n va martabaning yo‘qotilishi -

کمر بردن belbog‘ni yechish ya’ni o‘zligini butunlay qurbon qilish, taslim bo‘lish-

Oshiqning ma’shuqqa mutlaq taslim bo‘lishi - u yuragini sindirsa ham, boshidan tojini olsa ham, oshiq undan shikoyat qilmaydi.

#### 5-bayt:

اوست نشسته در نظر من به کجا نظر کنم

اوست گرفته شهر دل من به کجا سفر برم

Ko‘zimning oldidadur, men qayon etgum nazar,

Dil shahrim fotihidur, men safar qay yon etay.

Rumi uchun ishqning markazi - Allohdır. Ishq mutlaq kuchga ega - u inson nigohini va qalbini butunlay egallab oladi.

نېشتە در نظر nigohim oldida ya’ni har joyda ma’shuqni ko‘rish -

6-bayt:

آنک ز زخم تیر او کوه شکاف می کند

پیش گشاد تیر او وای اگر سپر برم

Tiyra jabridin aning tog‘ ko‘ksi necha bo‘lak,

Ayon o‘qlar qarshisida qandayin qalqon tutay.

Bu misralarda ilohiy ishq shunchalik kuchlik, u hatto tog‘larni ham yorib yuborishi mumkinligiga ishora qiladi. Rumi o‘zini bu ishqqa to‘liq ochib, hech qanday qalqon bilan himoyalanishni xohlamaydi. Bu bayt ishqning qudrati, oshiqning holati va ilohiy tajribaning ta’siri haqida. Shoir ma’shuqning ishqqi yoki ilohiy qudratning ta’sirini kuchli ramzlar orqali tasvirlaydi.

زخم تیر او q jarohati ya’ni ishqning ruhiy og‘rig‘i -

کوه شکاف tog‘ni yorish ya’ni ishqning kuchi insonning butun borlig‘ini- o‘zgartirishi.

گشاد تیر o‘qning otilishi ya’ni ishqning ta’sirining kengayishi, ilohiy imtihon -

7-bayt:

گفتم آفتاب را گر ببری تو تاب خود

تاب تو را چو تب کند گفت بلی اگر برم

Dedim oftobga: Agar o‘z nuring etsang xarob,

Sening tafting bilan isir, dedi: “namoyon etay”.

Bu baytda Alloh, haqiqat va ilohiy nur haqida chuqr ma’no mujassam. Shoir Quyosh bilan inson orasida falsafiy muloqotni yaratgan. Quyoshning tafti va issiqligi, Ma’shuqning tafti oldida oddiy bir isitmaga o‘xhatilgan.

8-bayt:

آنک ز تاب روی او نور صفا به دل کشد

و آنک ز جوی حسن او آب سوی جگر برم

Aning yuzi jilosidin nuri safo qalbga enar,

Husnining jilvasidin jonga obi hayvon tutay.

Bu misralarda Allohnинг go‘zalligi va uning mehribonligi tasvirlanadi. Uning nuri qalblarni poklaydi, sevgisi esa chanqoq jonga suvdek huzur bag‘ishlaydi. Ishqning eng chuqr bosqichi ma’shuqning jamolidan nur olish, uning husnidan taskin topish bilan bog‘liq.

ما’shuqning yuzidan taralayotgan nur - تاب روی او

نور صفا poklik nuri, qalbni yorituvchi haqiqat -  
جوی حسن او ma'shuqning husnidan oqayotgan go'zallik jilg'asi -

## 9-bayt:

در هوس خیال او همچو خیال گشته‌ام  
وز سر رشک نام او نام رخ قفر برم  
Aning yodi birla mudom xayolotga evrildim,  
Rashkida ul qamarning ismi-la afg'on etay.

Bu misralarda Rumi ishq yo'lida o'zidan butunlay kechib, xayol singari beqaror holatga tushganini aytadi . “Oy yuzining nomini tilga olish” - Allohning go'zalligi va mukammalligini tasvirlash. Bu baytda ishq, ma'shuq tasviri va oshiqning ruhiy holati tasvirlangan. Ishqning eng yuksak darajasi - o'zini unutish, fano bo'lish holatidir. “Hayolga aylanmoq” - bu yerda oshiq o'zidan voz kechib, ma'shuqga mutlaq bog'langanligini bildiradi.

## 10-bayt:

این غزلم جواب آن باده که داشت پیش من  
گفت بخور نمی‌خوری پیش کسی دیگر برم  
Bul g'azal javobdurur qarshimdagi sharobning,  
Derki: “Ichgil, yo magar o'zgani mehmon etay”.

Bu bayt ilohiy muhabbat, ma'rifat va haqiqatni qabul qilish haqida. Shoirning g'oyasi shundan iboratki, haqiqat va ilohiy muhabbat hamma uchun mavjud, lekin kim uni rad etsa, u boshqasiga o'tadi. Bu tasavvufiy qarashga asoslangan bo'lib, inson qalbi haqiqatni qabul qilish yoki rad etish imkoniyatiga ega ekanligini ta'kidlaydi. Haqiqat barcha uchun mavjud, lekin undan faqat uni qabul qilganlar bahramand bo'ladilar.

Xulosa o'rnida quyidagi fikrlarni aytish mumkinki Rumiyning "Devoni Kabir" asaridagi 1403-g'azali inson qalbining eng nozik kechinmalari va ilohiy ishqning sirli olamini yorituvchi bebaho durdir. Shoir bu g'azalda ma'naviy yuksalish, ilohiy haqiqatga yetishish yo'lida kechadigan ruhiy holatlarni tasvirlab, o'quvchini ichki dunyosiga nazar tashlashga undaydi. Ishq faqatgina bir his-tuyg'u emas, balki insonni o'z mohiyatini anglashga va Haqqa yetishishga yo'naltiruvchi ilohiy kuch ekanligi uqtiriladi. Tahlil davomida ushbu g'azalda ramziy ma'no va poetik san'atlarning mohirona qo'llangani aniqlandi. Shoir o'z asari orqali insonni ruhiy o'sish, ichki poklanish va ishq sirlarini anglashga undaydi. Rumiy she'riyati – nafaqat adabiy yuksaklik, balki inson ruhiyatining eng chuqur qatlamlariga sayohat hamdir. Uning g'azali bugungi o'quvchini ham maftun etadi va ezgulikka, muhabbatga chorlaydi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. دیوان شمس تبریزی . مولانا جلال الدین محمد بلخی
2. شرح غزلیات شمس (جلد شانزدهم) . عبدالکریم سروش
3. شرح دیوان شمس تبریزیس . کریم زمانی . سال چاپ: ۱۴۰۲
4. کلیات شمس یا دیوان کبیر، به تصحیح بدیع الزمان فروزانفر، انتشارات دانشگاه تهران، ۱۳۴۵-۱۳۳۶
5. Рубинчик Ю. А современный персидский язык Москва, 1960.
6. <https://ganjnoor.net>
7. <https://vajehyab.com>
8. <https://dehkhoda.ir>
9. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)
10. [www.kh-davronuz.com](http://www.kh-davronuz.com)
11. [www.parstoday.ir](http://www.parstoday.ir)